

UMAR IBN XATTOB ADOLAT TIMSOLI SIFATIDA (ROZIALLOHU ANHU)

Eshquvvatova Mahfuza Qayimjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti

Tarix yo'nalishi talabasi

Annotasiya: *Mazkur maqolada Buyuk, odil va adolatli Hazrati Umar (Roziallohu anhu)ning nasabi va fazilatlari, Hazrati Umarning musulmon bo'lishi va u kishining faoliyatlari haqida qisqacha so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Umar ibn Hattob, Al-Forqun, Abu Xafs, Quraysh ahli, islom dini, xalifa, adolat.*

Men uchun eng sevimli kishi xatolarimni ko'rsatgan insondir.

*Men uchun eng afzal inson adolatga zid ish taklif qilinganda,
manfaatli bo'lishiga qaramasdan, rad eta olgan insondir.*

Hazrati Umar ibn Xattob

Sahobalar ichida qo'rqmas, shijoatkor, odillik, haqqo'ylik va adolatlilik, taqvo va yana ko'plab oliy sifatlar ila tanilgan Umar Roziallohu anhudir. Manbalar habar berishicha Umar ibn Xattobning nasablari, Umar ibn Xattob ibn Nufayl ibn Abduluzzo ibn Royah ibn Abdulloh ibn Qurt ibn Rozih ibn Adiy ibn Ka'b ibn Lu'ay ibn G'olib ibn Quraysh. Shuni ta'kidlashimiz joizki, Ka'b ibn Lu'ayda Rasululloh sollallohu alayhi vassallam bilan nasablari tutashadi.

Umar ibn Xattob Fil yiling o'n uchinchi yili, Makkada tavallud topganlar. Hazrati Umar sharaf va siyosatda mashhur bo'lgan oilada tug'ilgan. Otasi Hattob ibn Nufayl bo'lgan. Umar Roziallohu anhu tug'ilganlarida juda ham xursand bo'lgan. Chunki o'sha davrda qiz farzandlarning qadri bo'lmagan. Kimdur qiz farzand ko'rsa o'zini qo'yarga joy topolmay, odamlar ko'ziga qaray olishmagan. Onasi Hoshama Ibn Hoshim Islom dushmani Abu Jahl bilan ammakivachcha bo'lgan. Xattob otasining qattiqqo'ligi bilan hech narsadan qo'rqmaydigan shijoatli inson bo'lib voyaga yetadi. Ahmad Lutfiy Qozonchining Umar ibn Hattob kitobida yozishicha, Yoshligidan qo'rqmas, Jasur va dovyurakligi tufayli "Abu Xafs" – Arslonning otasi (yani erkak arslon) degan nomni olgan. Bundan tashqari Umar Ibn Xattob islom dinini qabul qilganidan keyin u kishiga Al Foruq deb nom berishgan. (Jabroil (a.s.) aytdilar: Sizni haq bilan yuborgan Zotga qasamki, uning ismi osmonda yerdagidan mashhurroqdir. Uning ismi osmonda Foruq, yerda esa Umardir[1]. Umar chapaqay bo'lishiga qaramay bo'lishiga qaramay o'ng qo'lini ham bemalol ishlata olgan. U kishi odamlar orasida tursa go'yoki odamlar piyoda, Umar Roziallohu anhu esa ulovda turgandek ko'rinar edi. Umar Roziallohu anhu yoshligida cho'ponlik bilan shug'ullangan deb aytishadi yana baʼzi bir manbalarda Johiliyat davrida elchilik vazifasini bajargan deb aytishadi. Jumladan, Muhammad Ismoilning to'rt xalifa va Umaviylar davlati asarida shunday yozilgan: To'g'rilik, adolat, omonat, haqni gapirishga juratlilik asosida tarbiya topdi. Johiliyat davrida u kishiga elchilik vazifasi topshirilar edi. Quraysh ichida o'zaro

urushlar qabilalararo urishlar chiqib qolsa, Quraysh u kishini ularning nomlaridan gapiradigan, ragʻbatlarni bayon etadigan elchi qilib joʻnatar edi. Oʻnta jannat bilan bashorat qilinganlarning biri, xulofon roshidlarining ikkinchisi Nabiyy sallohu allayhu vassalam ga yaqin suyumli kimsalardan biri, sahobalarning katta olimlari va zohidlaridan biri edi[2].

Hazrati Umar Roziyallohu anhu ning koʻrinishlari haqida manbalarda shunday deyilgan, U kishi qoruvli, boʻylari uzun, boshlarining old tomoni sochsiz, quyuq- soqol moʻylovli, ulkan odimlar tashlab, biroz shoshib yuradigan inson edilar. Umar Roziyallohu anhu islomga qattiq qarshilik qilib turgan paytda kirganlar. Islomga kirishlaridan oldin islom dini qabul qilganlarga oʻta shavqatsizlik qilganlar U kishi Quraysh musulmon boʻlganlarni haqorat qilar javob qaytarganlarini esa doʻpposlaganlar. Hattob islom diniga kirayotganlarni ota bobolarining va eski urf odatlariga xiyonat qilyabdi deb hisoblaganlar.

Paygambarlik kelganiga olti yillar boʻlgan chamasida Umar ibni Hattob bir kuni Makka koʻchalaridan birida aylanib yurgandilar. Bir kishi kelib: «Ey, Umar, senga nima boʻldi, «Men - u, men - bu!» deb maqtanasanu holbuki, Islom oʻz xonadoningga ham yoʻl solibdi-ku?!» - dedi. Umar bunga gʻoyatda ajablanib, «Qanday qilib kiribdi, ayt», dedilar. «Kuyoving bilan singling allaqachon dindan qaytib, Muhammadga ergashib ketdilar» - dedi haligi odam. Bunga Umarning xushlari boshlaridan uchib, kuyovlarining uyiga shoshib yoʻl soldilar. Kela solib eshikni qoqdilar. Hovlida ashobdan ikki kishi boʻlib, bir necha odam qogʻozga yozilgan Qurʼon oyatlarini oʻqib, oʻrganmoqda edilar. Ular Umarning ovozlari eshitgach, har birlari har tomonga yashirinishga shoshilib, qogʻozni yerga tushirib qoldirdilar. Umarning singillari eshikni ochgach, shu zahotiyiq, «Sen badbaxt dindan qaytdingmi?!» deb yuzlariga qoʻllaridagi narsa bilan urib jarohatladilar. «Ha, men musulmon boʻldim, qoʻlingizdan kelganini qiling!» deb singillari ham boʻsh kelmadilar. Ushbu gapdan Umar dargʻazab boʻlib, boʻgʻilishlariga sal qoldi. Yerdagi qogʻozni koʻrib: «Nima u, olib kel menga», dedilar. Singillari avval qogʻozni bermaslikka tirishsalarida, oxiri majburan olib berdilar. Umar «Bismillohir rohmanir rohim» degan yozuvga koʻzlari tushishi bilan qogʻozni chetga otib yubordilar. Birozdan keyin jahllari sal bosilib, qogʻozni qaytadan qoʻllariga olib oʻqishga tutindilar. Qogʻozdagi «XADID» surasi edi. Yozuvda Ollahning ismi zikr etilgan sayin Umarning achchiqlari bosilib, qoʻrquvlari orta bordi. Shu tariqa suraning oxirigacha oʻqib chiqdilar va oʻsha zahotiyiq butunlay boshqa Umarga aylanib qoldilar. Birdaniga shahodat keltirib, dinni qabul etib yubordilar. Kishilar shodlikdan na qilarlarini ham bilmay qoldilar. Takbirlar aytib, quvonchlarini namoyon etdilar. «Dushanba kuni Rasululloh rabbilaridan Abu Jahl yohud Umar birla Islomni madadlantiruvlarini soʻrab duo qilgandilar. Ollahga hamdlar boʻlsinki, ushbu sharafga siz noil boʻldingiz», deb Umarni muborakbod etdilar. Umar ulardan Rasulullohning qaerdaliklarini bildilar, toʻgʻri Arkamning hovlilariga kelib eshikni qoqdilar. U yerdagilar Umar kelganliklarini bilib nima qilarlarini bilmay shoshib qoldilar. Yolgʻiz Rasulullohgina hech qanday eʼtirozga oʻrin qoldirmaydigan darajadagi xotirjamlikla eshikni ochishga buyurdilar. Umar eshikdan kirganlarida Rasulullohga suiqasd niyatida kelgan boʻlmasin, deya ikki kishi qoʻllaridan ushlamoqchi boʻlishdi. Biroq Rasululloh tegmanglar, deya ishorat etdilar. Umar janob Rasulullohning oldilariga yaqinlashganlarida, Rasululloh Umarning koʻylaklaridan tortib: «Ey Hattob oʻgʻli, Islomga kelsang boʻlmaydimi?» dedilar.

Bunga javoban Umar hech kutilmaganda, Ashhadu anlo iloha illallohu va annaka rasulullohu - deya shahodat kalimasini aytib yubordilar. [3]

Bundan ko'rinib turibdiki, Umar Roziallohu anhu islom dini qabul qilishi hammani quvontiradi chunki o'sha davr odamlari orasida Umar ib Hattob qo'rqmas, shijoatli va adolatli kishi edilar. Islom dinini qabul qilmagan kishilar Xattoki Hattobning oldida islom dinini yomonlay olishmagan buncha juratlari yetmagan. U kishi islom dini qabul qilganlaridan oldin 39 ta erkak, 23 ta ayol islom dinini qabul qilgan edilar. U kishi bilan 40kishi islom dinini qabul qilgan bo'ladi. Umar ibn Hattob islom dinini yashirin tarzda emas balki ochiq, erkin tarzda ibodat qilishlarini targ'ib etganlar. Zero u kishi "Haq hamisha g'olib keladi uni yashirish kerak emas" degan e'tiqodda edilar.

Hazrati Umar Rasululloh bilan barcha saflarda birga bo'ldi va hamma janglarda qatnashdi. Bazan Rasululloh Hazrati Umarni qo'shinning ma'lum bir qismiga boshliq etib tayinlar edilar [4]. Hazrati Umar Roziallohu anhu qaysi bir safda bo'lmasinlar hoh oddiy askar bo'ladilarmi yoki bosh qo'mondonmi nima bo'lishlaridan qat'iy nazar ularning maqsadlari bitta islom kalimasini yer yuzida bo'lishi edi. Butun fikr- zikrlariyu, o'y-hayollari dushmani yakson etishlik bo'lgan. 13-yil 22-jumodil avvalda (634 yil 23 avgust) xalifalik mansabiga saylangan Umar ibni Hattob «Islom davlatini boshlab to'g'ri asosga bino qilgan zot», deya ta'rif etiladurlar. O'zlarining eng birinchi xutbalarida tutayotgan siyosatlari haqida qisqacha, ammo g'oyat ochiq tarzda bayonot bergandilar. Mana shu xutbalarida aytgan so'zlariga umrlarining oxirigacha amal qiloldilar, uddasidan chiqdilar. «Arablar yetaklovchiga ergashadigan asov tuyalarga o'xshaydilar. Ammo men ularni, Ollohga qasam ichib aytamanki, to'g'ri yo'lga solaman», degandilar. Voqean shunday bo'ldi. Hech qanday tartib va intizomni bilmaydigan arab jazirasidagi xalqlarni bir butun davlat qo'l ostida birlashtirib, o'z zamona-sidagi eng kuchli sanalmish Eron va Vizant saltanatlariga tahdid soladigan millatga aylantira oldilar. Mana shu boshboshdoq xalqlarni birlashuvi oqibatida tuzilgan davlat Eron kabi yuksak taraqqiyotga ega bo'lgan saltanatning to'rt ming yillik tarixini yer yuzidan o'chirib tashlay oldi. Vizant saltanatining arklarini esa larzaga solib yubordi. Juda ko'p yerlarni qo'lidan tortib oldi va o'z davlati chegarasiga qo'shdi. Iroq, Suriya, Misr kabi dunyoda eng unumdor boy mamlakatlar sanalgan joylarni ham arab davlati hisobiga kengaytirib qo'shib oldi. O'n yildan ortiqroq vaqt mobaynidagi hukmdorliklarida Umar ibni Hattob Abu Bakr zamonlarida boshlangan futuhotlarni g'oyat jiddiyat ko'rsatib davom etdirdilar. Amalda zo'r muvaffaqiyatga erishdilar[5]. Umar Roziallohu anhu davrlariga qarasaq bir tomondan adolat yana bir tomondan qattiqqo'llik siyosatini yurg'izganlar. Bir qo'lida darralarini, ikkinchi qo'lida esa adolatni ushlab turib davlatni boshqarganlar. Umar (r.a.) butun kuchlarini aql foydasiga ishlatar edilar. Katta-katta hokimiyatlarni yakson qilgan bo'lsalarda oddiy insonlarde kiyinar va yashardilar. Qonun va shariat oldida xalq bilan barobar tutganlar.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Hazrati Umar Roziallohu anhu qalbida Alloh va uning elchisi bo'lgan Rosululloh sallollohu allayhu vassalamga cheksiz muhabbat va yuksak ehtiromda bo'lganlar. Mana shuning uchun ham u kishi minglab kilometrda cho'zilgan ulkan hududning hukmdori bo'la turib bazı bir hukmdorlardek qonxo'r, o'zini o'ylaydigan, xudbin inson bo'lmadilar. Aksincha xalqni doimo o'ylab, hamma joyda adolatni o'rnatishga

harakat qilgan insondir. U kishining muhabbat va ulkan ehtiromi tufayli uning qahru hazabini xaq va adolatga bosh egdirdi. Hazrati Umar Roziyallohu anhu bironing haqqiga xiyonat qilmagan, doimo xalqni o‘ylagan adolatli oliy janob inson sifatida tarixdan o‘chmas iz qoldirgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulaziz Shanaviyning "Rasulullohning izdoshlari" kitobidan, Toshkent, «Movarounnahr», 2008
2. Muhammad Ismoil "To‘rt xalifa va Umaviylar davlati tarixi" Toshkent 2004 yil. 54-bet.
3. Islom.ziyo uz.com. "Xulofoi Roshidiyn" kitobidan
4. Ahmad Lutfiy Qozonchi. "Hazrati Umar ibn Hattob (r.a.)" Toshkent, "Movarounnahr". 2005.
5. <https://sammuslim,uz/oz/articles/hazrati-umar-roziyallohu-anhu>. 29.11.2017.